

**KURASH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI***Xomudjonova Feruza Komiljon qizi**Jismoniy madaniyat kafedra mudiri dotsent**Orolov Ismoil Ziyodulla ògли**Shahrisabz Davlat Instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ota-bobolarimizdan meros qolgan qadimiylar va buyuk tarixga ega milliy kurash --- bu bizning madaniyatimiz va özligimizni anglatib turadi. Shuningdek, unda bir necha asrlik tarix mavjud bòlib , quyida shu haqida fikr yuritamiz.

**Kalit sözlar:** Milliy kurash va uning boy tarixi, pahlavon kurashchilar , yevropa davlatlaridagi kurash tarixi , kurash usullari , asrlar oshib kelayotgan xalq oğzaki ijodidagi kurash.

Kurash, ayniqsa, Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiyada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan. Milliy kurashning xilma-xil ko‘rinishlari Gretsya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Rossiya, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda mavjud. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-yildan a’zo). Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O‘zbekiston janubi) hududidan topilgan jez davriga oid silindrishimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo‘lgan.

Avloddan avlodga meros bòlib òtib kelayotgan sport öyinlari , ayniqsa , miiliy kurash kòp asrlik va boy tarixga ega . Kurash ilk marotaba Yunonistonda keng tarqalgan bòlib , qadimgi olimpiya öyinlarida özinining òrniga ega bòlgan. Shuningdek

, kurashni turli xil kòrinishda turli xil davlatlarda uchratishimiz bular Gretsya , Italiya , Yaponiya , Turkiya , Afgoniston kabilarda. Yevropa davlatlarida esa u yunonrim kurashi deb atalgan. Uning kelib chiqish davrlariga e'tibor beradigan bòlsak , XVIII asrning oxiri --- XIX asr boshlarida chet el davlatlarining bir nechtasida ishlab chiqilgan. Qadimgi Suǵdiyona markazi bòlgan Samarqandda Nayròz bayramlarida turli xil tomoshalar kòrsatilgan , ular orasida albatta , milliy kurashlar ham namoyish etilgan. U yoqda xalq hofizlari, dorbozlar , raqqoslar , asosan , yoshlari uluǵ qariyalar esa hakamlik vazifasini bajarib yoshlarni haqqoniy kurashishga òrgatishgan. Shu kabi tomoshalar mobaynida yosh qizlar va xotinlar kurashish maydoniga kelishlari ta'qiqlangan. Ular asosan , maydon chetlaridan musobaqalarni kuzatishga harakat qilishgan. Özbekiston pahlavon kurashchilari 3 ta katta guruh bòlinadi : bular

1. Sipohi ( bahodir) pahlavonlar - ular kurash tushishgan shuningdek, jang ham qilishgan .

2.Gòshtingir pahlavonlar - kurash tushish bilan birga ilm-ma'rifat , ijod bilan ham shugullanishganlar.

3.Ustoz pahlavonlar esa ular kurash tushish òrniga shogirdlar bilan qattiq ishlab , kurashning barcha sirlarini shogirdlariga yetkaza olishga harakat qilishgan. Jasur va mard shogirdlar tarbiyalab , kurash maydonida özini tuta bilishni òrgatishgan.Xulosa òrnida shuni ta'kidlashim joizki, milliy kurash juda ham qadimgi òtmishga borib taqaladi. Tasavvur qilish qiyin lekin u XVIII asrda turli xil kòrinishlarda paydo bòlib , odamlarga unga katta qiziqishlari uyǵongan. Faqatgina Órta Osiyodagina rivojlanib qolmasdan yevropa mamlakatlarida ham öz òrni ega bòlgan. Faqatgina bir farqi , chet davlatlarida kurashchilar faqatgina kurashishda tashqari , ular keng maydonda jang ham qilishgan. Shunindek , u orqali ham özbek milliy urf-odatlari naqadar boy tarixga ega ekanligini shuningdek , birgina sport musobaqamiz orqali butun bir madaniyatmiz va özligimiz gavdalanadi. Shu bilan birga milliy kurashishimizda ustoz -shogird an'anasiga ham mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axmatov M. S. Monografiya . Milliy sport turlari. Kurash -T; 2005 y, - 235 b.
2. Ahmedov F. N. Jismoniy tarbiya òqitish metodikasi bòyicha qòllanma . T, 2015.
3. Goncharova O. V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish .Öquv qòllanma. Öz DJTI, T,; 2005 y, 171 b.
4. Yusupov K. Kurash kelib chiqish tarixi xalqaro qidalari , uslubiyati va usullari.